O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 15 - dekabr 330-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 20 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi 299-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”ga 465-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori hamda shu asosda qabul qiligan Toshkent viloyati hokimining **2023 yil 20 sentabrdagi 465-10-0-Q/23-sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori hamda shu asosda qabul qiligan Toshkent viloyati hokimining **2023 yil 20 sentabrdagi 465-10-0-Q/23-sonli qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Hududlarni shaharsozlik jihatidan rejalashtirishga doir ishlab chiqiladigan hujjatlarning quyidagi darajalari belgilanganligi inobatga olinsin:

birinchi darajada - hududlarning raqobat ustunliklari va barqaror rivojlanish drayverlarini aniqlab beruvchi viloyat hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh loyihasi hamda viloyat hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish

loyihalari, shuningdek, shaharlar (shaharchalar) va shahar atrofi zonalari integratsiya asosida Aglomeratsiyalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi;

ikkinchi darajada - shaharlar (shaharchalar) va shahar atrofi zonalari integratsiyasi asosida shaharlarning (shaharchalarning) bosh rejalari (keyingi o‘rinlarda - shaharlarning bosh rejalari), shuningdek, qishloq aholi punktlarining hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish chizmalari ishlab chiqiladi;

uchinchi darajada - hududlarning aniq muammolarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan, o‘zida shaharsozlik, ijtimoiy-istisodiy, ekologik va boshqa loyihayechimlarini mujassamlashtirgan master rejalari yoki batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqiladi.

3. Mazkur qaror bilan:

aholi punktlari hududlarini shaharsozlik hujjatlari bilan qamrab olish darajalari
1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

master rejalar va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish bo‘yichabuyurtmachi etib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda manfaatdor vazirlik va idoralar belgilanganligi;

2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturining yig‘ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

2023-2027-yillarda shaharlarning bosh reja loyihalarini ishlab chiqish jadvali 3- ilovaga muvofiq;

2023-2027 yillarda shaharchalarning bosh reja loyihalarini ishlab chiqish jadvali 4-ilovaga muvofiq;

2023-2027 yillarda qishloq aholi punktlarining hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish jadvali 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari 6-ilovaga muvofiq idoralararo integratsiyalashuvni amalga oshirish maqsadida tegishli ma’lumotlarni (tematik qatlamlarni) Shaharsozlik geoaxborot tizimiga taqdim etishi;

Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishni tashkil etish, tasdiqlash hamda

ijrosini nazorat qilish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" 7-ilovaga muvofiq tasdiqdanganligi;

"ToshkentboshplanLITI" bosh loyiha instituti - Toshkent va Samarqand shaharlari, Toshkent viloyati shaharlari va shaharchalarining bosh rejalari loyihalarini ishlab chiqishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (N.Bazarbaev) har yili tumanning shaharsozlik hujjatlari ijrosi yuzasidan tegishliligi bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashiga hisobot taqdim etib borsin.

5. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (N.Bazarbaev) zimmasiga:

hududlarni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aholi punktlari shaharsozlik hujjatlarining asosiy qoidalariga rioya etgan holda amalga oshirilishi;

uy-joy, ijtimoiy soha, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasi obyektlari qurilishida aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga qat’iy rioya etilishi;

aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarining amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**